

INGLIZ TILI VA O'ZBEK TILIDA OMONIM SO'ZLARNING ROLI VA ULARNING AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Saydamatov I.N

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Abdulloyeva Munisaxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida omonim so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari, turli grammatik shakllarga egaligi, ularning qo'llanilishi, o'xshash va farqli jihatlari hamda ularning lug'at boyligidagi o'rni tahlil qilinadi. Omonimlar tilning semantik ko'p qirraliligini ifodalovchi vosita sifatida qadrlanadi. Omonimlarning lug'aviy rivojlanishi va ular orqali yaratiladigan so'z o'yinlari har bir tilda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: omonimlar, ingliz tili, o'zbek tili, tilshunoslik, semantik, omonim turlari, so'z o'yinlari, yuzaga kelish sabablari.

Abstract: This article analyzes the specific features of homonyms in English and Uzbek languages, the possession of different grammatical forms, their use, similar and different aspects, and their place in the vocabulary. Homonyms are valued as a means of expressing the semantic versatility of the language. The lexical development of homonyms and puns created through them are important in every language.

Key words: homonyms, English language, Uzbek language, linguistics, semantics, types of homonyms, puns, causes of occurrence.

Omonim so'zlar- bir xil talaffuzga ega, lekin turli ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar, umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlar, ular orasida semantik aloqa bo'lmaydi. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq hodisalar omonimiya deyiladi. Omonimlarning lug'aviy va grammatik ko'rinishlari bir-biridan farq qiladi. Omonimlar turli tillarda bir xil funksiyani bajarsada, ularning tilda o'ziga xos o'rni va ishlatilishi har bir madaniyatning lingvistik xususiyatlariga bog'liq.

Ingliz tili ham, o'zbek tili ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiziqarli va muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tili jahonning eng ko'p qo'llaniladigan tillaridan biri bo'lib, bu tilning rivojlanishi davomida omonimlar katta ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, o'zbek tili ham o'ziga xos boy lug'at va grammatikaga ega bo'lib, omonimlar tilga ifodaviylik bag'ishlaydi.

Ingliz tilida omonimlarning roli va ahamiyati:

Ingliz tilida omonimlar ko'p qirrali ifoda imkoniyatlarini beradi. Bir xil so'z turli kontekstlarda nutunlay boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "bat" so'zi

ingliz tilida ham “ko’rshapalak”, ham “bezbol tayoqchasi” ma’nosida ishlatiladi. Bunday so’zlar ko’p ma’noli nutq qurilishiga xizmat qilib, kontekstga asoslanib tushunishni talab qiladi.

Ingliz tilida omonimlar ba’zan matn orqali aniqlanadigan semantik noaniqlikni keltirib chiqaradi. Jumladan, “bark” so’zi daraxtning po’tlog’i yoki itning hurishi sifatida talqin qilinishi mumkin, bu esa tushunmovchilikka sabab bo’ladi. Shuning uchun omonimlar o’z o’rnida tog’ri tushunilishini ta’minlash uchun kontekstga tayanishni talab etadi.

So’z o’yinlari va adabiy uslub:

Omonimlar ingliz adabiyotida keng qo’llaniladi, ayniqsa, hajviy va o’yinli uslublarda. Shakldosh so’zlardan foydalanish orqali hazil va o’xshash estetik vositalar yaratiladi. Mashhur adiblar, jumladan Uilyam Shekspir o’z asarlarida omonim so’zlarni ko’p qo’llab, ular bilan semantik o’yinlar yaratgan. Bu esa tilning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, o’zbek tili mumtoz adabiyotini ham shakldosh so’zlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ular orqali ijodiy o’xshatishlar va kinoyalar yaratiladi, bu esa tilning estetik qiymatini oshiradi. Ayniqsa, omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san’ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so’z o’yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So’z ustalari, masalan, shoirlardan Al-Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So’fi Olloyor va boshqalar poetik ta’sirchanlikni oshirishda omonimlardan mahorat bilan foydalanganlar. Alisher Navoiyning:

Olmani sundi nigorim – ol,- dedi,

Olma birla bu ko’ngilni ol,- dedi.

So’rdim ersa olmasining rangini,

Ne so’rasan? – olma rangi ol, - dedi ,-

tuyug’i buning yorqin isbotidir. Baytlarda ol so’zi uch ma’noda ishlatilgan: buyruq fe’li, ko’ngil ovlamoq, qizil rang.

Ingliz tilida omonimlarning talaffuzi ham ko’pincha bir-biriga o’xshaydi, ular yozilish yoki talaffuzda aniq farqlanishi qiyin bo’lishi mumkin. Ayrim hollarda bu til o’rganuvchilar uchun ham murakkablik keltiradi.

Omonimlar turli grammatik funksiyalarni bajarishi mumkin. Masalan, “lead” (yetaklash) fe’l sifatida va “lead” (qoplama) nom-ot sifatida. Va ular quyidagi asosiy turlarga bo’linadi:

1. Homographs : yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma’nosi farq qiluvchi so’zlar:

- Lead (boshqarish) va lead (metall)
- Tear (yirtmoq) va tear (ko’z yosh)

2. Homophones: talaffuzi bir xil, lekin yozilishi va ma’nosi farq qiluvchi so’zlar:

- Flour (un) va flower (gul)
- To, two va too.
- 3. Polysemy: bir so'zning bir nechta bog'liq ma'nolari bo'lishi
 - Bank (moliyaviy muassasa) va bank (daryo bo'yidagi qirg'oq)

Omonimlar har bir tilda uchragani kabi o'zbek tilida ham so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra bir turi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, shakldosh so'zlar talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. O'zbek tilida omonimlik asosan ot va fe'llarda mavjud:

- Oshiq (ot) – sevgan kishi;
- Oshiq (fe'l) – talpinmoq.

Bunday omonim so'zlar qo'shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi. Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlarni o'zaro farqlash zarur. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Omonimlar esa boshqa-boshqa so'zlar bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Albatta, bu matn jarayonida ajralib turadi.

Omonimlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Leksik (lug'aviy) omonimlar so'zlar o'rtasida shakldoshlardir: soch- a'zo , soch- harakat; oq-rang, oq-harakat.
2. Frazologik omonimlar iboralar, ya'ni ko'chma ma'noli, ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi shakldoshlikdir: boshga ko'tarmoq- e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq- to'polon qilmoq; ko'z yummoq- vafot etmoq, ko'z yummoq – e'tibor bermaslik.
3. Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi:
 - a) Morfologik omonimlar qo'shimchalar o'rtasidagi omonimlik: to'kin dasturxon (sifat yasovchi) – ekin (ot yasovchi).
 - b) Sintaktik omonimlar so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasida bo'ladi : so'z birikmalarining omonimligi: yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'ondakamiga hayron bo'lmoq).

Aslida, omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakllari tasodifan teng bo'lib qoladi: baqa-qurbaqa, baqa-suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi.
2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unitilib, bir so'z negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: kun-quyosh, kun-sutka.
3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan tengbo'lib qoladi: to'y (fors-tojik) – katta to'o qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzdagi mol o'lchovi.

4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo'lgan so'zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: surat (arabcha) – rasm, surat (arabcha) –urf-odat.

5. Leksemalarning yasalishi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo'noq-tariq, qo'noq-mehmon kabi.

O'zbek tilida omonimlar bir xil yozilsada, talaffuzlari ko'pincha farq qiladi, ya'ni qo'shimchalar qo'shish orqali ma'nolar aniqlanadi. Omonimiyani aniqlash uchun har bir so'z shaklini tasniflash kerak, uning so'z turkumi va bir tegga birlashuvchi morfologik xususiyatlar to'plami bilan bog'lab qo'yiladi.

Xulosa:

Ingliz va o'zbek tillarida shakldosh so'zlarning roli muhim bo'lib, ular tilni boyitish, ifodaviy imkoniyatlarni kengaytirish va adabiyotda so'z o'yinlari yaratish maqsadlarga xizmat qiladi. Omonimlar ko'pincha kontekst orqali aniqlanadi, bu esa ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, lekin ayni paytda tilni chuqur o'rganish imkoniyatini ham taqdim etadi. Umuman olganda, omonimlar har ikki tilning boyligini ko'rsatadi va ularni o'rganish, tilshunoslik va muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Toshkent 1984.
2. A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. 2015. Badiiy san'atlar.
3. . Yuldashev, U.A. O'zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: Fan, 1997.
4. Crystal, David. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2003.
5. . Trask, R.L. A Dictionary of Phonetics and Phonology. Routledge, 1996.